

**O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI XALQ
TA'LIMI
VAZIRLIGI
A.QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI XALQ
TA'LIMI
VAZIRLIGI
A.QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

BOSHLANG'ICH TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

«Himoya qilishga ruxsat beraman»
Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi
fakulteti dekani
_____ dots. Rabbimov M.T.
«___» _____ 2014 y.

Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi

“OTLARDAGI KELISHIK KATEGORIYASI”
mavzusida bajarilgan
KURS ISHI

Bajaruvchi: Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi fakulteti
IV kurs talabasi XIDIROVA B

Ilmiy rahbar: Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va
amaliyoti kafedrası

Ishni himoyaga tavsiya etaman: _____
(imzo) (ilmiy rahbar ismi va sharifi)

BMI «BTN va A » kafedrası yig'ilishining qarori bilan
(Qaror № , 2014 y.) himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _____
(ismi va sharifi) (imzo)

JIZZAX– 2014

OTLARDAGI KELISHIK KATEGORIYASI

REJA:

1.OTNING KELISHIK KATEGORIYASI HAQIDA MA'LUMOT

2.BOSH KELISHIK HAQIDA MA'LUMOT

3.QARATQICH KELISHIGI HAQIDA MA'LUMOT

4.TUSHUM KELISHIGI HAQIDA MA'LUMOT

5.JO'NALISH KELISHIGI HAQIDA MA'LUMOT

6.O'RIN PAYT KELISHIGI HAQIDA MA'LUMOT

7.KELISHIKLARNING OPPOZITIV MUNOSABATLARI TIZIMI

XULOSA

1. OTNING KELISHIK KATEGORIYASI HAQIDA MA'LUMOT

Kelishik morfologik kategoriyalar ichida o'zining sintaktik tabiati g'oyat ustunligi bilan ajralib turadi. Har qanday kelishik, odatda, o'zi shakllantirayotgan so'zni boshqasi bilan bog'laydi. Bu bog'lanish matnda yaqqol sezilib turadi. Masalan, Vakillarni kutib oling, ozdan ko'p afzal...

Sintaktik xususiyatning bunday ustivorligi semantik jihatni susaytiradi. SHu tufayli ham kelishiklarning semantik xususiyati borasida yuzaga kelgan qarashlar sintaktik jihatiga berilgan bahoga nisbatan xilma-xil va tarqoq bo'lib kelgan.

Ushbu qarashlarni ikki katta guruhga jamlash mumkin:

1. Kelishiklar o'z semantikasiga ega emas. Ular muayyan sintaktik vazifa bajaradi.
2. Kelishiklar o'z semantikasiga ega.
Kelishiklarning o'z semantikasiga ega bo'lishini ikki jihatdan sharhlash mumkin:
 1. Falsafiy jihat: har qanday borliq-har qanday til birligi kabi kelishiklarning ham mavjud bo'lishi ularning mohiyatan ziddiyatli ikkilangan bo'lishini talab qiladi. Sintaktik jihat ushbu ziddiyatning bir qutbi (uning mavjudligi hech kimda shubha tug'dirmaydi) bo'lsa, ikkinchi qutb (uning borligi biroz shubhaliroq tuyulsa ham) aynan semantikadir.
 2. Lisoniy jihat: kelishiklarga mohiyatan xos bo'lgan ziddiyatli jihatlar har birining realizatsiyasi uchun qulay lisoniy sharoitlar mavjud. Sintaktik jihatning yorqin realizatsiyasi uchun bunday imkoniyat ancha keng bo'lsa, semantik jihat uchun bu xil imkoniyat chegaralangandir. So'zning sintaktik vazifa o'zgarmagan holda turli kelishiklarni qabul qila olish o'rinlari ana shu xil (semantik jihatning yorqinlashuvi) imkoniyatni yuzaga keltiradi. Kesim pozitsiyasi ana shu xil pozitsiyalarning eng qulayidir. Buning boisi shundaki, kesim turkiy tillarda mutlaq hokim bo'lak bo'lib, uning tarkibidagi shakllar semantikasi tobelik natijasida yuzaga keluvchi xiralashuvdan xoli.

SHuningdek, ega pozitsiyasi ham, kesim darajasida bo'lmasada, kelishikning semantik xususiyati yorqinlashuvida qulaylik tug'diradi. CHunki ega va kesim gap asosining o'zaro grammatik boshqarilmas a'zolaridir. Ammo o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari ega pozitsiyasida faqat bosh kelishikning tura olishini taqozo etganligi tufayli, bu pozitsiyaning ushbu kelishik semantik xususiyatlarini qay darajada yorqinlashtirayotganligini aniqlashda qiyosdan mahrummiz. Bosh kelishik ma'no xususiyatlarining shoyatda boy va murakkabligi esa uning semantik jihatlarini aniqlashda qiyinchilik tug'diradi. SHuningdek bosh kelishik egallashi mumkin bo'lgan sintaktik pozitsiyalari xilma-xilligi ham bu kelishik semantikasi tahlilini qiyinlashtiruvchi omillardandir.

Sintaktik vazifa o'zgarmagan holda kelishiklarning almashish holatlari, sintaktik qo'shilma azolari orasida bog'liklik sustroq bo'lganda mumkin bo'ladi. Kelishiklarni ayni shu holatlarda tekshirish ularning kesim yoki ega pozitsiyasida yuzaga chiqmaydigan ma'nolarini aniqlashga yordam beradi.

Quyida kelishiklar tahlilida ularning semantik xususiyatlarini ochishda yuqoridagi kabi pozitsiyalarga alohida e'tibor beriladi. Chunki ayni shu xil pozitsiyalar kelishiklar semantikasining relevant zonasidir.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida kelishiklarning miqdori masalasida turlicha qarashlar mavjud bo'lib kelgan. Ulardan eng ko'p tarqalganiga ko'ra kelishiklar 6 ta:

1. Bosh kelishik - Ø
2. Qaratqich kelishigi - - ning
3. Tushum kelishigi - - ni
4. Chiqish kelishigi - - dan
5. Jo'nalish kelishigi - -ga
6. O'rin kelishigi - - da

Kelishiklar kategoriyasining ayni shu tarkibi va tartibi o'zbek tili akademik grammatikasida o'z aksini topgan.

Ammo bu xil qarashni yagona deb bo'lmaydi. Hatto kelishiklarning joylashuv tartibi borasida ham xilma-xil qarashlar mavjud. Jumladan, kelishiklarni tartiblashda ularning qo'llanish yoki shakllanish darajasini hisobga olishni taklif etuvchilar bor. Shunday tadqiqotlarning birida ko'rsatilishicha, qo'llanish darajasiga ko'ra kelishiklar tartibi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Bosh kelishik 44.1%
2. Tushum kelishigi 17.5%
3. Jo'nalish kelishigi 13.3%
4. Qaratqich kelishigi 11.3%
5. O'rin kelishigi 7.3%
6. Chiqish kelishigi 6.5%

Kelishiklarning qo'llanish darajasi ularning mohiyati bilan chambarchas bog'liqligi shubhasiz. Ammo bu holatni qat'iyashtirib kelishiklar sirasida aks ettirish shart emas. Chunki qurilishi asosida boshqa xilma-xil omillar, xususan, shakllanganlik turib qolsa, tartibi yana o'zgarib ketadi. Statistik hisoblarga ko'ra bunda birinchi o'ringa chiqish kelishigi chiqsa (99.9 %), qaratqich kelishigi oxirgi o'rinda qoladi (58.3 %).

Xullas, kelishiklar mohiyati tahlilida yuqoridagi jihatlar ham ozmi-ko'pmi hisobga olinsada, ularni qat'iy, majburiy asos sifatida tadbqiq etish zarurati yo'q.

Ammo kelishik kategoriyasi tarkibi borasidagi qarashlar masalasida bunday zarurat yo'q deb bo'lmaydi. Tilshunoslarning ko'pchiligi asosan 6 a'zoli kategoriya haqida fikrga qo'shilsa ham ayrim qo'shimchalar borasidagi bahs-munozaralar ularning kelishik qo'shimchasi ekanligi haqida fikr-mulohazalar bilan qo'shib olib boriladi. Bu xil fikrlar, asosan, gacha, niki, - dek qo'shimchalari borasida yuritiladi.

Xususan, Ilqerbak A.M. «...Hozirgi o'zbek tilida -gacha affiksi... xuddi har qanday kelishik kabi distributsiya modeliga ega», deb yozadi. Ushbu fikr keyinchalik o'zbek tilshunoslari tomonidan ham davom ettiriladi. Xuddi shu muallif-dek formasini ham kelishik paradigmasida ko'radi. -niki borasida qarashlar ikki xil: ayrim tilshunolar uni qaratqich kelishigi ko'rsatkichi- - -ning

bilan bir qatorga qo'ysa, ayrimlari uni murakkab affiks sifatida baholab (ning + ki), uning kelishik yoki boshqa bir paradigmadagi o'rni masalasini ochiq qoldiradilar. niki va dek ning kelishik paradigmasidagi o'rni borasida ortiqcha bahsga hojat yo'q. Bu ikki qo'shimcha ushbu paradigmadan na semantik, na sintaktik xususiyatlariga ko'ra o'rin ololadi. Qiyoslang: Yo'ning toshi-tosh yo'lniki. -niki -ning bajarayotgan sintaktik vazifa-turkiy izofa hosil qilishni bajara olmasligidan tashqari, go'yo ularni yaqinlashtirayotgandek tuyuluvchi ma'no qismida ham keskin farqlar bor.-ning ifodalovchi qarashlilik belgi tabiatiga ega bo'lsa, -niki ifodalovchi qarashlilik baho tabiatiga ega. SHuningdek, sintaktik vazifa bajarish jihatidan ham ular farqli: -ning, -li so'zshakl aniqlovchi vazifasi uchun xoslansa, -niki da kesimlikka ishora kuchli. -ning shaklan neytrallashuv imkoniga ega bo'lgani holda (ko'chaning yuzi ko'cha yuzi), -niki da bu xil imkoniyat yuq. -dek ham ko'p jihatdan -niki ga yaqin keladi. Bu qo'shimchada sintaktik xususiyatlarining g'oyat ustunligi bilan farqlanuvchi kelishik qo'shimchalaridan farqli ravishda aynan semantik jihat ustun. Albatta, sintaktik imkoniyat mavjudligini ham rad etib bo'lmaydi. Biroq bu qo'shimchaning kelishik qo'shimchalari bilan almashinuv imkoniyatlari nihoyatda chegaralangan. Qiyoslang: osmondek katta osmondan katta osmonni katta osmonga katta. Deyarli barcha kelishiklar uchun xos bo'lgan shaklan neytrallashuv hodisasi bu qo'shimcha uchun begona.

Xullas, - niki va -dek ning kelishik kategoriyasi sirasiga kirmasligi ancha yaqqol ko'rinib turadi.

Biroq - gacha formasi borasida bunday fikr bildirish oson emas. SHuning uchun ham tilshunoslar bu borada xilma-xil fikrlar bildirib kelishadi. Bu xil fikrlarni quyidagi uch guruhga mujassam etish mumkin:

- 1)-gacha nokategorial qo'shimcha [SH.Abdurahmonov va boshq].
- 2)-gacha kelishik qo'shimchasi [Ne'matov, SHerbak].
- 3)-gacha ko'makchi qo'shimcha [Rahmatullaev SH.].

-gacha ni nokategorial qo'shimcha deb atash atamaning noqulayligi bois darrov e'tiroz uyg'otadi. Noqulaylik shu erdagi, kategoriyadan, muayyan bir sistemadan tashqarida hayot yo'q. Har qanday mavjudot (shu jumladan, til birligi) ning ham yashash sharti aloqa, munosabat. Munosabatlar esa mavjudotlarni bir butunlikka— sistemaga jamlaydi. Bu har qanday borliqning hayot sharti. Ammo bu o'rinda tilshunoslarni bu ontologik haqiqatni tushunmaslikda ayblab bo'lmaydi. Ushbu o'rinda tadqiqotchining chalg'itgan narsa bizning amaliy tilshunosligimizda «kategoriya» atamasi ostida asosan morfologik kategoriyalarning tushunib kelinganligidir. «Nokategorial» atamasini mavjud darslik va qo'llanmalarda keng qo'llovchilar bu atamani - gacha va shu atama ostida birlashgan qator boshqa qo'shimchalar (-xon, - jon, - niki...) ning morfologik kategoriya a'zosi emasligini his qilgan holda ishlatadilar. SHuning uchun goh «nokategorial», goh «funksional» atamalarini qo'llash orqali bu kemptikni to'latishga harakat qilinadi. Aslida bu muammo echimi ushbu qo'shimchalar, jumladan, mulohazalarimiz ob'ekti bo'lgan - gacha, -dek, -niki ning boshqa bir kategorial o'rni topilishi bilan bog'liq.

Bunday o‘rinning mavjud bo‘lishi shak-shubhasiz. -gacha ni ham -niki va -dek kabi kelishik qo‘shimchasi deb nomlash ham ana shu o‘rinni topishdagi urinishlardan biridir. Darhaqiqat, bir qarashda - gacha boshqa kelishik shakllari bilan almashinish munosabatlariga kirishayotgandek tuyuladi: uy - uyning – uyni - uyga - uyda – uy - dan - uygacha.

Ammo ushbu qatorda - gacha o‘rinlashuvi uchun unda bu tizmaning boshqa a‘zolari kabi butunlik - yaxlitlik bo‘lishi lozim. «... lekin - gacha murakkab affiks emas, chunki uning tarkibi -ga affiksiga va -cha morfemasiga ajraladi». -cha morfemasini ko‘makchi morfema deb atash, aftidan, tilimizning bugungi holati nuqtai nazaridan uning mohiyatiga to‘g‘ri keladi.

dek, - niki ham mohiyatan ko‘makchilik xususiyati kasb etganligi sababli, ularni ham ko‘makchi-affiks deb atash ma‘qul.

Demak, kelishik kategoriyasi 6 a‘zoli bo‘lib, ular bosh kelishik (B.k), qaratqich kelishigi (JB.k), tushum kelishigi (T.k), jo‘nalish kelishigi (J.k), o‘rin kelishigi (O‘.k), chiqish kelishigi (CH.k).

Quyida bu kelishiklarning o‘zaro munosabatlari sistemasini tiklashdan oldin ularning har biriga xos semantik-sintaktik xususiyatlarni izohlab o‘tsak.

2.BOSH KELISHIK HAQIDA MA’LUMOT

Bosh kelishik nol shaklli (Ø) bo‘lib, shu jihati uni tahlil etishda bir qator qiyinchiliklar tug‘diradi. Avvalo shuki, bosh kelishik barcha nol ko‘rsatkichli kategoriant lar kabi semantik jihatdan juda boy. Boshqa kategoriyalarning ham nol shaklli a‘zolari o‘zlarining keng qamrovliliklari bilan farq etib turadi

YAna bir tomondan, moddiy ko‘rsatkichning yo‘qligi umuman shu shakl mavjud bo‘lmagan-bo‘lgan o‘rinlarni belgilashda xilma-xillikka olib keladi. Kelishik kategoriyasi, nomidan ham ko‘rinib turganidek, asosan «kelishtirish», bog‘lash, moslashtirish kabi sintaktik vazifani bajarganligi bois ham, shu xil vazifa bajarilmayotgan, ya’ni so‘zni boshqa bir so‘zga bog‘lash, yoki so‘zni muayyan sintaktik vazifa uchun xoslash qurilmagan holatlarni biz «kelishik shakli bor» deb baholamaymiz.

Bosh kelishikdagi so‘zshakl gap tarkibida xohlagan gap bo‘lagi vazifasida kelishi mumkin. Ega vazifasida -Ko‘ngil ko‘ngildan suv ichadi, kesim vazifasida -dil qulfi -til, to‘ldiruvchi vazifasida -quruq gap qorin og‘ritadi, aniqlovchi vazifasida -bilim -baxt kaliti, hol vazifasida -chorshanba kuni uchrashaylik.

SHuningdek, bosh kelishikdagi so‘zga ko‘makchi qo‘shilib, bu konstruksiya gap tarkibida muayyan vazifa bajarishi mumkin: dugonam singari, muammo to‘g‘risida, shikoyat tarzida...

So‘z birikmasi tarkibida bosh kelishikdagi so‘z hokim pozitsiyada ham - «keyingi» (a), tobe pozitsiyada ham «oldingi» (b) tura oladi.

a)kechagi vaqt, gul bargi, chaqqon qiz ...;

b)Andijon shahri, g‘isht devor, onasi Arofat

Bosh kelishikning bunday imkoniyati (ham hokim, ham tobe pozitsiyada turishi) uni boshqa kelishiklardan ayricha xususiyatli ekanini ko'rsatadi. Boshqa barcha kelishiklar, bu erda aynan sintaktik mavqe nazarda tutilmoqda, faqat tobe pozitsiyani egallay oladi.

Ularning hokim pozitsiyani egallab turgan so'z shakl tarkibiga kirishi esa semantik mavqelari bilan bog'liq bo'lib, yuqorida aytib o'tilganidek, aynan shu xil o'rinlarda ularning semantik jihatlari yorqinlashadi, amal qiladi:

Butun mehri-muhabbatim sizga onajon!

Tirnoq namdan, mo'y g'aman.

Bu kabi o'rinlar bosh kelishikdan boshqa kelishiklarni semantik mohiyati uchun relevant zonadir.

Bosh kelishikning qo'llanish imkoniyatlari bilan bog'liq ravishda yana bir masala ochiladiki, ushbu o'rinda aslo bu masalani nazardan chetda qoldirib bo'lmaydi. Bu boshqa kelishiklarning «belgili» ko'llanish holatidir.

Umuman har qanday «belgisiz qo'llanish» lar, «tushib qolishlar (masalan, bir tarkibli gaplarda bosh bo'laklardan birining tushib qolishi) holatlariga ancha ehtiyotkorlik bilan yondashish lozim. Til yuqori darajada shakllangan sistema sifatida o'z birliklarining tasodifiy o'zgarishlariga yo'l qo'ymaydi. Har qanday o'zgarish muayyan ichki qonuniyatlar asosida yuzaga chiqadi, qandaydir vazifa, shart-sharoitni ko'zda tutadi.

Kelishik formalarining tushib qolishi sifatida baholanadigan holat ham bejiz yuzaga kelmasligini kichik qiyoslashlar ham yaqqol ko'rsatib beradi: Ko'chaning yuzi — ko'cha yuzi.

«Ko'chaning» aniqlik, belgilanganlikdan darak beradi, Gap aniq, muayyan bir ko'cha haqida bormoqda.

SHul ko'chaning ul yuzida yor uyi bor...

- ning siz holatda esa noaniqlik, umumiylik (umuman har qanday ko'cha) ma'nosi kuchayadi.

Qadimda ko'cha yuzini tosh bilan qoplash rasm bo'lgan.

Albatta, har ikki xil ma'no tusini ifodalashda ham -ning ni qo'llash yoki qo'llamaslik imkonini beruvchi holatlar ham uchraydi. Ammo bu xil holatlarda «aniqlik» yoki «noaniqlik» ka ishora qiluvchi qo'shimcha vositalar, situativ xabardorlik, kelishilganlik kabilar alohida o'rin tutadi. Masalan, o'sha men sizga aytgan gul bargi, kechagi institut bog'i...

Boshqa kelishiklar borasida ham yanada qiziqarli faktlar ochiladi. Odatda bitta pozitsiyada kelishik ko'rsatkichini qo'llash ham, «tushirish» ham imkoni mavjud bo'ladi. Bu esa ularning variant emasligidan darak beradi: gul uzdim - gulni uzdim.

Ma'lumki, har qanday til birligi moddiy va mazmuniy jihatlarining muayyan butunligidan tashkil topadi. Bu butunlikni uning mohiyatiga zarar etkazmay parchalab bo'lmaydi. Albatta, moddiy jihat deganda, oddiygina tovushlar yig'indisi emas, ushbu birlikni boshqa birliklardan ajratib turuvchi farqlar yig'indisi nazarda tutiladi: «... tilda ifodalovchi vujudsizdir, uni material substansiya emas, uning akustik obrazini boshqa barcha akustik obrazlardan ajratib

turuvchi farqlar hosil qiladi». SHuningdek, «...butunning qiymati uning qismlari bilan, qismlar qiymati esa uning butun tarkibidagi o‘rni bilan belgilanadi».

Ko‘rinadiki, har qanday til birligining moddiy (formal) va ma’noviy tomoni o‘zaro bir butunlik hosil qiladi. Bu butunlikni birlikning mohiyatiga zarar etkazmay parchalab bo‘lmaydi. Kelishik shakllarining «belgisiz» qo‘llanishi haqidagi faraz ana shu jihatdan bizni qoniqtirmaydi. Moddiy qobiq (yoki uning yo‘qligi nol ko‘rsatkich) muayyan ideyani til sistemasida «mahkamlash», uni boshqalaridan farqlash uchun zaruriydir. «Ma’no» deb atalish uchun ma’lum tushuncha ma’lum bir shakl bilan barqaror munosabatlarga kirishuvi lozim. Bir-biridan moddiy jihatdan farq qiluvchi ob’ektlar mutlaq to‘liq izomorf bo‘la olmaydi. Modomiki, muayyan pozitsiyada muayyan kelishik qo‘shimchasi bilan bir qatorda Ø ham qo‘llana olar **ekan** to‘liq ishonch bilan aytish mumkinki, bular boshqa-boshqa kelishiklardir.

Xo‘sh, shunday ekan, bu holatda qaysi kelishik haqida gap boradi?

Tilshunoslar turkiy tillarda «bosh kelishikdagi ot gapning xohlagan bo‘lagi vazifasida kela olishi» ni doimo ta’kidlab kelganlar. Bosh kelishikning ushbu xususiyati uning barcha kelishiklar o‘rnini bosa olishidan kelib chiqadi. Modomiki, so‘z kelishik uchun xarakterli bo‘lgan sintaktik munosabatlarda turar ekan, uni kelishikka befarq deb bo‘lmaydi. Demak, kelishiklar sirasida yagona Ø bo‘lgan bosh kelishik ana shu xil holatlarda reallashadi.

Bu xulosa bosh kelishikning harakat doirasini ancha kengaytirib yuboradi, ma’noviy xususiyatlari murakkabligini oshiradi.

BK o‘zi bog‘langan so‘zni muayyan turkum yoki gap bo‘lagi doirasida cheklamaydi. YA’ni xohlagan so‘z turkumiga oid so‘z BK ni olishi va xohlagan gap bo‘lagi vazifasida kelishi mumkin. Ammo shu bilan birga BK ni umuman so‘z turkumlarini farqlash borasida befarq deb bo‘lmaydi. Bu xil imkoniyat (so‘zlarning turkumiy farqlarini ko‘rsatish) unda bilvosita bo‘lgani sababli ham darhol sezilmaydi. BK (vaTK) dagi bevosita ob’ekt bilan bog‘lanish imkoniyati fe’llarni ikki katta guruhga ajratadi: o‘timli va o‘timsiz fe’llar. Qiyoslang: *gul uzdim - uy keldim*.

BK sintaktik imkoniyatlarining kengligi mutlaqo u bu sohada chegara bilmaydi, degani emas. Hamma o‘rinlarda ham BK boshqa kelishiklarning o‘rni bosish imkoniyatiga ega emas. Bu imkoniyatga uch omil ta’sir ko‘rsatadi:

1. Bog‘lanayotgan so‘zlarning kontakt-distant joylashganligi (konstruktiv omil).
2. Boshqa kelishiklarga oid ma’no (ma’no tusi) ning situativ zarurligi (kommunikativ omil).
3. Bog‘lanayotgan so‘zlarning turkumiy xususiyatlari.

Bog‘lanayotgan so‘zlar orasida distantlik kuchaygan sari ularni bog‘lovchi formal ko‘rsatkichga ehtiyoj kuchayadi: Jahl ustida aytgan gaplarimni ko‘nglingizga olmaysizmi? (A. Qahhor) Kontakt holatlarda BK ning boshqa kelishiklar uchun xarakterli o‘rinlarda kelish imkoni ko‘proq bo‘ladi.

...o‘sha odam yana shaftoli olib o‘tdi (A. Qahhor).

Ammo kontaktlik BK qo‘llanishida yagona shart emas. Kontakt sharoitda ham muayyan kelishikning kommunikativ-konstruktiv jihatlari zaruriy bo‘lgan holatda BK qo‘llanishi mumkin bo‘lmay qoladi:... xotini shaftoliga boshqorong‘i bo‘lgan emish (A. Qahhor).

SHuningdek, bog‘lanayotgan so‘zlarning ayrim turkumiy xususiyatlari ham ma‘lum o‘rinlarda BK ning qo‘llanishini cheklaydi. Masalan, quyidagi luĥaviy-grammatik guruhlarda: atoqli otlar (a), olmoshlarning ayrim turlari (b) kabi. Qiyoslang:

a) Latofatxonni eslab - Latofatxon eslab;

b) buning uyi-bu uyi; meni ko‘rdi - men ko‘rdi.

BK da aynan TK va ЉBK bilan o‘rin almashish imkoni kuchli. CHK, JK va ЉBK larda esa bu imkoniyat nihoyatda chegaralangan. Masalan, ikki kundan keyin - ikki kun keyin, qishloqqa ketdi qishloq ketdi, oqshomda ketdi - oqshom ketdi...

BK bilan munosabatda kelishiklarning bu xil ikki guruhga ajralib qolish sabablari—semantik-sintaktik omillari ular boshqa kelishiklar bilan qiyoslanganda ochiladi.

3.QARATQICH KELISHIGI HAQIDA MA‘LUMOT

Qaratqich kelishigi uch xil variantdagi ko‘rsatkichga egaligi ko‘rsatiladi: ning (a), ing (I, II shaxs kishilik olmoshidan keyin (b), n(she‘riyatda, SH shaxs egalik affiksidan keyin) (v).

a) do‘stimning baxti; b) mening uyim;

v) qoshin qarosi.

Bu uch variant orasida qo‘llanish doirasi borasini hisobga olmaganda, ontologik farqlar yo‘q. SHuning uchun ham ularni alohida-alohida tahlil etmaymiz. Qaratqich kelishigi qo‘shimchasini olgan so‘z odatda egalik qo‘shimchasini olgan so‘z bilan bog‘lansada, egalik qo‘shimchasini olmagan so‘z bilan ham bog‘lanishi mumkin:

Bizning ayvon sizning ayvon emasmi? (Qo‘shiqdan)

Ikkinchi holat (egalik affiksisiz so‘z bilan bog‘lanish) qaratqich qo‘shimchasidagi qarashlilik ma‘nosining kuchayishi so‘zning so‘zga bog‘lash (turkiy izofa hosil qilish) imkoniyatining susayishi bilan xarakterlanadi. Bunday noizofiy aniqlovchi vazifasida kelish imkoniyati izofiy aniqlovchi vazifasida kelish imkoniyatiga nisbatan ancha qadimiyroq bo‘lib, u uchun asos bo‘lgan QK ko‘rsatkichi olgan so‘z uchun turkiy tillar tarixida kesim pozitsiyasida ham kelish imkoni mavjud bo‘lgan.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bu vazifani me‘yoran -niki ko‘makchisi bajaradi: To‘g‘ri, lekin zamon shularni... (A. Qahhor).

Tilshunoslikda QK ko‘rsatkichini olgan so‘zni qaratuvchi, u bilan bog‘langan so‘zni (egalik qo‘shimchasini olgan) qaralmish deb atab kelinadi.

Qaratqich - qaralmish munosabati ancha barqaror bo‘lib yuqorida ko‘rsatilganidek, hozirgi o‘zbek adabiy tilida ega va kesim pozitsiyasida qo‘llanish

imkoniyatidan mahrum bo'lish bilan QK ning so'z birikmasidagi sintaktik imkoniyati yanada kuchayadi. QK bilan shakllangan so'zni muayyan birikmadan tashqarida reallashtirib bo'lmaydi (hozirgi o'zbek adabiy tili me'yorlariga ko'ra).

QK ning qo'llanishida yuzaga chiquvchi qiziq bir holat bor: QK dagi so'zning uchun, singari, bilan, kabi... ko'makchilar bilan birlashuvi - shuning uchun, shuning singari, shuning kabi .

Bu xil holatda «...kelishik formasi sintaktik vazifa ko'rsatmaydi» deb baholanadi.

Ma'lumki, har qanday til birligi sintaktik-semantik jihatlar butunligidan iborat. Odatda, bu jihatlar birgalikda yuzaga chiqadi. SHunday o'rinlar bo'lishi mumkinki, yo u, yo bu jihat neytrallashadi. Demak, yuqoridagi holat sintaktik vazifa ko'rsatish jihati neytrallashgan pozitsiya deb baholansa, unda uning semantik jihati reallashuvi lozim.

Har ikki jihat birdan neytrallasha olmaydi. Ammo yuqoridagi holatda aynan semantik jihatning yo'qligi ko'rinib turibdi. Mustaqil so'z va yordamchi so'z orasida semantik bog'liqlik yordamchi so'zning ontologik xususiyatlariga ko'ra vujudga kelolmaydi. Bizningcha, shu xil o'rinlarda kelishikning (nafaqat QK, balki, umuman, har qanday kelishikning) aynan sintaktik mohiyati ochiladi: kelishik bu xil o'rinda o'zakni yordamchi so'z bilan bog'lash vazifasini bajaradi. Masalan, shuning bilan, bizningcha, mening kabi, yoki uyga tomon, uygacha, kelgandan so'ng.... Bu

holatda til birligining mohiyati yangicha ko'rinish kasb etadi, ba'zan shu til birligining hayoti tugaydi. Qo'qqisdan, birdan kabi ravishlar tarkibida kelishiklar ana shu tufayli «qotib qolgan», so'zning ajralmas qismiga aylangan. YUqorida ta'kidlab o'tilganidek (BK bahsida), QK da BK bilan o'rin almashish imkoni ancha kuchli.

O'rin almashuv avvalo qaratuvchi va qaralmishning kontakt yoki distant joylashuviga bog'liq. Qaratuvchi va qaralmish orasida masofaning o'sib borishi BK ga nisbatan QK ning qo'llanishini ko'proq shart qilib qo'yadi. Qiyoslang:

Qalbining eng toza, eng yorug' bir burchida...

Qalbi eng toza, eng yorug' bir burchida...

Ammo QK va BK ning o'rin almashuvida kontakt-distantlik yagona omil emas. QK ning qo'llanishini kontakt o'rinlarda ham zaruriy bo'lgan holatlar ko'p:

-Atoqli otlar, laqablarda:

... yugurganicha Sidiqjonning oldiga bordi qiyoslang:

... yugurganicha Sidiqjon oldiga bordi.

-qaratuvchi yoki qaralmish son bilan ifodalanganda:

ko'pning biri—ko'p biri, ikkovlarining fikri –ikkovlari fikri,

-olmoshlarining ko'pchiligida:

sizning so'zingiz, buning ishi, hammaning o'yi.

SHuningdek, qaratuvchi ifodalagan ma'no ahamiyatli yoki uni ta'kidlab ko'rsatish zarur bo'lgan o'rinlarda ham, albatta, QK qo'llanadi: gazetaning (aniq bir gazeta) muxbiri - gazeta (umuman gazeta) muxbiri.

SHunday o‘rinlar mavjudki, qaratuvchi hech qachon QK da turmaydi: «O‘tgan kunlar» romani, fevral oyi, yakshanba kuni ... Sanab o‘tilgan o‘rinlar QK mohiyatini ochib berishda alohida o‘rin tutadi. Uning boshqa kelishiklar bilan munosabatlarida bu xil holatlarning sababi ochiladi.

4.TUSHUM KELISHIGI HAQIDA MA’LUMOT

Tushum kelishigi ko‘rsatkichi bir necha morfologik variantlidir: - ni (-ti), - di, - zi (sizzi). I, II shaxs kishilik olmoshiga birlik sonda qo‘shilganda, bitta «n» tovushi tushib qolishi sababli varianti yuzaga keladi. Bular tashqari poetik nutqdan varianti ham qo‘llanadi. Bu variantlar orasidagi farq, aftidan, faqat uslub va qo‘llanish darajasida cheklangan bo‘lib, vazifa bajarish va ma’no ifodalash doirasida mohiyati bilan bog‘liq farqlar ko‘rinmaydi. SHuning uchun ham quyida ularni birgalikda olib tekshiraveramiz.

TK dagi so‘z faqat fe‘l bilan boshqariladi. Fe‘llar TKI dagi so‘zga munosabatiga ko‘ra ikkiga ajraladi: o‘timli fe‘llar (potensial TK dagi so‘zni boshqarish imkoniga ega) va o‘timsiz fe‘llar (TK dagi so‘zni boshqarmaydi). TK bilan shakllandigan so‘z o‘timli fe‘l ifodalayotgan harakatni o‘z ustiga to‘la oladi: olmani eng, kitobni oling, tugunni ko‘tar. TK ham QK kabi BK bilan juda ko‘p holatlarda o‘rin almasha oladi: chiroqni yoqdi, chiroq yo‘ldi, mehmonni chaqirdi mehmon chaqirdi...

SHu bilan birga bunday o‘rin almashuvlar umuman mumkin bo‘lmagan holatlar ham bor. Matnda aynan TK ning qo‘llanilishini shart qilib qo‘yuvchi quyidagi omillar ko‘rsatiladi:

1. Muayyan lug‘aviy-grammatik guruh, xususan, atoqli ot (yoki shaxs oti) bilan ifodalanishi:

Zokir ota Sidiqjonni biroz g‘o‘za choptirib ko‘rdi-yu...
(A. Qahhor)

Olmoshlarning ayrim turlari, harakat nomi, sifat-dosh, sifat turkumiga oid so‘zlarda ham shu holatni ko‘rish mumkin.

2. Egalik affiksi mavjudligi: Bo‘taboy akam masalangni majlisga solaman, dedilar. (A. Qahhor)

3. Ma’lum bir sifatlovchi olganlik:

Anzirat xola o‘sha xatni nima uchun yuborganligi...

(A. Qahhor)

4. Bog‘lanayotgan so‘zlarning kontakt-distant joylashganligi. Distant sharoitda BK va TK ning o‘rin almashuv imkoniyati chegaralangan bo‘ladi: Bunaqa ishni bir-biridan xaridorni qizg‘anadigan ... o‘ukondorlar qilsa bo‘ladi. (Abdulla Qahhor).

BK ni ham, TK ni ham qo‘llash mumkin bo‘lgan o‘rinlarda TK ni qo‘llash alohida ta’kidlash zaruriyatini (a), aniqlik (b), to‘liqlik (v) kabi ma’no turlari mavjuddigini ko‘rsatadi:

a)... bu xil muammo kallani ishlatib echiladi.

...//kalla ishlatib//

b) tilxatni yozing// tilxat yozing...

v) Samandarov oshni ... ichdi ...

TK bilan shakllangan soʻz gap tarkibida vositasiz toʻldiruvchi vazifasini bajaradi:

Samandarov kelib bolani supaga chiqarib qoʻydi... (A. Qahhor)

Kampir oʻgʻliga yozgan xatidan bunday maʼno chiqishini hech oʻylamagan ekan (A. Qahhor).

Juvon... durrasining uchi bilan yuzini bekitib teskari oʻgirildi (A. Qahhor).

4. CHIQISH KELISHIGI HAQIDA MAʼLUMOT

CHiqish kelshigi yagona koʻrsatkichga ega: -dan. Ushbu qoʻshimcha koʻrsatish olmoshlariga qoʻshilganda, bir [n] tovushi orttiriladi: u + dan = undan, shu + dan = shundan... Bu tovush orttirilishi ushbu kelishikning morfologik tabiatiga mutlaqo taʼsir qilmaydigan tarixiy rudimentdir.

YUqorida taʼkidlab oʻtilganidek, CHK va BK ning oʻrin almashish imkoniyati juda chegaralangan: nondan eng - non eng, shakardan bering, shakar - bering... Ana shu xil oʻrin almashuvlarda ham CHK va BK orasidagi farq BK ning TK va QK bilan oʻrin almashuviga nisbatan juda keskin namoyon boʻladi.

SHu oʻrinda aytib oʻtish lozimki, CHK oʻrnida BK qoʻllanayotgandek tuyulgan hamma oʻrinlarda ham ushbu hodisa (oʻrin almashuv amalga oshyapti) deb boʻlmaydi. Baʼzida uyushiq boʻlak qismlarining - dan affiksini olmay ishlatilishi mavjud boʻlib, bunda kelishik yaxlitlovchi forma boʻlib keladi... uyning butun jihozi shol koʻrpa toʻshalgan oddiy temir karavot, ustiga allanima toʻkilib, qotib qolgan qoʻpol stol, ikkita taburetk, ... turli plakatlardan iborat edi (A. Qahhor). Bu oʻrinda... karavot, ...stol, ...taburetk, ... plakatlar barchasi butunicha, yaxlit chiqish kelishigi bilan shakllangan hisoblanadi.

Gap boʻlaklarining bir soʻz bilan ham, bir necha soʻz bilan ham; ifodalana olishi oʻzbek tilshunosligida allaqachon tan olingan boʻlib, gap boʻlagi materialiga nisbatan «atov birligi», «murakkab nom», «deskripsiya» atamalari ishlatib kelinadi:

SHu yaqin oʻrtada chilim qurilladi (A. Qahhor) gapida ega bir soʻz (chilim), kesim bir soʻz (qurilladi), hol bir necha soʻz (shu yaqin oʻrtada) bilan ifodalangan. Quyidagi gaplarda ham belgilangan boʻlaklarga eʼtibor qiling:

Birinchi masala yuzasidan Boʻtaboy akaga soʻz berildi

(A. Qahhor)

SHu payt odamlarni majlisga chaqirayotgan jarchining ovozi eshitildi.

Koʻrinadiki, gap boʻlagi ham (masalan, odamlarni majlisga chaqirayotgan jarchining ovozi), gap boʻlagining boʻlagi ham (masalan, odamlarni majlisga chaqirayotgan)... bir necha soʻzdan iborat boʻlishi mumkin ekan. Kelishik gap tarkibida murakkab atov birligi bilan ifodalangan gap boʻlagiga qoʻshilganda, ana shu sintaktik butunlikka toʻligʻicha tegishli boʻladi, shu butunlikni toʻligʻicha boshqa bir butunlikka bogʻlaydi. Albatta, murakkab atov birliklarining tarkibiy qismlari oʻzaro ham kelishiklar

yordamida bog‘lanaveradi. Biroq murakkab atov birligi uyushiq bo‘laklardan tuzilganda ular o‘zaro sanash ohangi va tartib orqali bog‘lanib, faqat eng so‘nggisiga kelishik qo‘shimchasini qo‘shish orqali yahlitlik ma‘no tusi yuzaga keltiriladi. Qiyoslang:... savodsizlikni bitirish kursini tugatgani va o‘sha kursda bir yildan ortiq o‘qituvchilik qilganidan boshqa yangi gap aytmedi (A. Qahhor). //... savodsizlikni bitirish kursini tugatganidan va o‘sha kursda bir yildan ortiq o‘qituvchilik qilganidan boshqa yangi gap aytmedi.

Keyingi holatda yaxlitlik buziladi. Bu xil o‘rinlarda BK ning qo‘llanayottani grammatik bog‘lanuv imkoniyatlariga ko‘ra ham sezilib turadi:... Uning butun jihozi shol ko‘rpa to‘shalgan oddiy temir karavot, ustiga allanima to‘kilib qotib qolgan qo‘pol stol, ikkita taburetki,... turli plakatlar iborat edi.

CHiqish kelishigidagi so‘zning gap tarkibida ikkinchi darajali bo‘lak va kesim bo‘lib kelishi keng tan olinadi. SHuningdek, bu xil kelishikdagi so‘zning ega vazifasida kela olishi haqida ham fikr bildirilgan o‘rinlar uchraydi: Xonamizda turli gullardan bor.

Bu o‘rinda ega vazifasida kelish masalasi biroz shubhalidek tuyulishi mumkin. Darhaqiqat, eganing odatda BK da kelishi: ega qaysi so‘z turkumi bilan ifodalangan bo‘lmasin va qanday mazmunni anglatmasin, u bosh kelishikda bo‘ladi. Bu forma uning absolyut hokimlik holatini ko‘rsatuvchi grammatik belgidir, kabi xulosaga olib kelgan. Biroq egaga boshqacha nuqtai nazardan yondoshsak, ega kesim bilan ifodalanayotgan belgining predmeti, tashuvchisidir. SHu bilan birga, turkiy tillar uchun gapning markazi yagona kesim ekanligi, umuman, negadir BK ni absolyut hokimlik holatini ko‘rsatadi, deb –hisoblashga asos yo‘qligini hisobga oladigan bo‘lsak, eganing boshqa kelishikda tura olishi mumkinligi masalasi u qadar shubhali tuyulmaydi. Umuman, biror vazifa uchun ko‘proq xoslanganlik tilshunosni mudom chalg‘itib keladi. Bu xil qarashlarning eng ibtidoiylari sifatida eganing ot yoki, albatta otlashgan so‘z bilan, «odatda» kesimning fe‘l bilan, aniqlovchining sifat bilan... ifodalanishi lozimligi haqidagi fikrlarni ko‘rsatish mumkin.

Xulosa qilib aytganda CHK dagi so‘z ega vazifasida qo‘llana oladi.

CHiqish kelishigi bilan shakllangan so‘z (atov birligi) ning hol (a) va to‘ldiruvchi (b) vazifasida kelgan holatlari aniq va tushunarli bo‘lgani holda, aniqlovchi (qaratuvchi) vazifasida kelgan holati (v) ancha murakkabdir:

a) shu chog‘ yonbag‘irdan kimningdir baland quvnoq tovushi eshitildi (A. Qahhordan). YUqorida o‘n-o‘n besh choqli mo‘ysafid bu erdan yaqqol ko‘rinib turgan sayrgohni tomosha qilib... (A. Qahhor).

b)... bu gaplardan cho‘chimang demadimmi? (A. Qahhor). — boyagi yog‘ochdan bayroq shuvillagancha yuqoriga ko‘tarildi (A. Qahhor) ...uning qabzasidan ushlab shitob bilan buray ketdi (A. Qahhor).

v) Nosirov qizil papkadagi qog‘ozlardan bir-ikkitasini ko‘zdan kechirdi (A. Qahhor). Qizlardan paranjilisi yaqinroq keldi... Bulardan shaddod bir kampir Babarning qiyig‘ini echib oldi (A. Qahhor).

CHK olgan soʻz TK olgan soʻz bilan oʻrin almashish imkoniga ega boʻlgan holatlarda CHK maʼno semantikasiga xos maʼno tusii yaqqol koʻrinadi. TK li soʻz anglatgan predmet harakat taʼsirida toʻlaligicha qolsa, CHK realizatsiyasida predmet harakat taʼsiriga qisman tushadi. Qiyoslang: bolalarni chaqir // bolalardan chaqir, uzumni eng // uzumdan eng...

CHK dagi soʻz qaratuvchi pozitsiyasida kelganda, QK bilan vazifadosh boʻlishi ham (qogʻozlardan bir-ikkitasi // qogʻozlarning bir-ikkitasi), boʻlmasligi ham mumkin (bulardan shaddod bir kampir // bularning shaddot bir kampir). YUqorida taʼkidlangan «murakkablilik» ham ana shundan kelib chiqadi. Bir qaramda har ikki holatni boshqacha baholash lozimdek koʻrinadi. Ammo mohiyatan ular bir hodisa boʻlib, har ikki holatda ham «butunning bir qismi» maʼnosi, qaratuvchilik vazifasi yuzaga chiqadi. Kesim tarkibida qoʻllanar ekan CHK ning semantik xususiyatlari yorqinlashib, sintaktik xususiyatlari susayadi: har bir narsa Ollohdan (xalq, soʻzi). Gaplari ham togʻdan-bogʻdan...(soʻzlashuvdan).

5. JOʻNALISH KELISHIGI HAQIDA MAʼLUMOT

Joʻnalish kelishigining adabiy tilda yagona koʻrsatkichi mavjud: -ga (variantlarni hisobga olmaganda).

JK dagi soʻz tobe pozitsiyada ham (hol va vositali toʻldiruvchi) (a), hokim pozitsiyada ham (b) tura oladi. Birinchi xil pozitsiyada turganda sintaktik va semantik jihat (sintaktik jihatning ustunligi bilan) yuzaga chiqsa, ikkinchi xil pozitsiyada, uning aynan semantik jikati yorqinlashadi. JK semantikasi xoslik, yoʻnalganlik, tenglashtirish kabi maʼno tuslaridan tuzilgan. SHaroitga qarab ularning zaruri yuzaga chiqadi:

a)... olomon oqsoqol hayqirgan tomonga -oshxonaga oʻgirildi (Oʻ. Hoshimov). Ismoil melisa bir hatlab askarga roʻpara boʻldi (Oʻ. Hoshimov). Oqsoqol bu gapni Zuhra kelinga aytdi (Oʻ. Hoshimov);

b) Holva hokinga-yu, kaltak etimgami? Bilim va isteʼdodimiz Senga, Vatan! Mayli, hammaning gunoh-savobi oʻziga! (Oʻ. Hoshimov).

JK dagi soʻzda qaysi maʼno tusining reallashuviga boshqaruvchi soʻz tabiati katta taʼsir koʻrsatadi: jonga jon, qonga qon; osmonga teng qaddi-basti; koʻchaga qaradi; yolgʻonga ishondi...

Koʻrinadiki, qurshovchi matn talabiga koʻra JK li soʻz nihoyatda xilma-xil maʼno ifodalashi mumkin. Buning sababi shuki, ifodalanayotgan xususiy maʼnolar JK dan emas, matndan kelib chiqadi, JK esa ushbu xil matnda sintaktik bogʻliqlikni taʼminlovchi vosita sifatida ishtirok etadi. Ammo, albatta, bu xil oʻrinlarda JK semantikadan toʻligʻicha mahrum deb boʻlmaydi. JK semantikasining asosiy xususiyati boʻlgan «yoʻnalishini ifodalash» (Ushbu maʼno kesim pozitsiyasida yaqqol namoyon boʻladi) har bir qoʻllanishda ozmi-koʻpmi yuzaga chiqadi. Aynan shu tufayli ham JK ni boshqa biror kelishik, xususan, BK bilan oʻrin almashish imkoni juda chegaralangan. Qiyoslang: quyiga boqmoq // quyi boqmoq, pastga ketmoq // past ketmoq.

Bu xil o‘rinlarda ham ikki kelishikning o‘rin almashuvidan ko‘ra, har bir kelishikning o‘z mustaqil harakat zonasi ekanligi yaqqol ko‘rinadi.

JK dagi so‘zning boshqarilish imkoni ham keng. Mustaqil so‘zlarning deyarli barcha turi (a) va ko‘makchilar (b) JK li so‘zni boshqara oladi:

a) sizga mushtiq, uyga ketmoq, birga bir, jonga jon;

b) buyruqqa binoan, kelishuvga ko‘ra...

6.O‘RIN PAYT KELISHIGI HAQIDA MA‘LUMOT

O‘rin kelishigining ko‘rsatkichi -da. O‘K ning BK bilan o‘rin almashuvi JK va CHK dagi kabi juda kam uchraydi: Ayasi o‘sha qonli oqshom yashirincha darsga ketayotgan ekan (A. Qahhor). Men bir ming to‘qqiz yuz oltmish to‘qqizinchi yil tug‘ilganman.

O‘K ning (CHK va JK ning ham) BK bilan o‘rin almashishi QK va CHK ga nisbatan kamroq shartlangan. Xususan, kontakt-distantlik bu o‘rin almashuvga aytarli ta’sir ko‘rsatmaydi. Semantik farq ham sezilar-sezilmas bo‘ladi. Qiyoslang: Sakson to‘qqizinchi yil institutni tugatdim// sakson to‘qqizinchi yilda institutni tugatdim, to‘qson ikkinchi yilda aspiranturani.

O‘K ning qo‘llanishi qiyos, sanash zarurati bilan yuzaga keladi. Biroq shu holat ham qat’iy va aniq emas. Bu xil o‘rinlarda ham O‘K ning o‘rnida BK bemalol kelaveradi. BK va O‘K (JK va I CHK ham) orasidagi shu xil munosabat, aftidan, bu kelishiklarning oppozitsion munosabatida semantik belgining sustligidan kelib chiqadi. (Quyida bu kelishiklarning oppozitsiya qatorlari tahlilida bu masala yorqinlashadi).

Sintaktik belgiga ko‘ra ziddiyat ancha yorqin. SHu sababdan ham sintaktik belgilar reallashuvi zarur bo‘lgan holatlarda BK bilan O‘K orasida o‘rin almashuv chegaralanadi: *Ammam kafshandozda o‘tirib maxsisini kiyyapti // kafshandoz o‘tirib...* SHu bilan birga O‘K va BK ziddiyatida aynan semantik omil birlamchi bo‘lib qolgan holatlar ham uchraydi. Bu O‘K ning semantik xususiyatiga (mutlaq sintaktik xususiyatiga emas) ko‘ra egallagan pozitsiyalarida ko‘rinadi:

Kattadan - kichik hamma dalada (O‘. Hoshimov) // Kattadan - kichik hamma dala.

O‘K dagi so‘z harakat holatning muayyan ʼrinlashuvini bildiradi. Qurshovchi matn xususiyatidan kelib chiqib makon, zamon, ob’ekt, vosita kabi ma’no turlari reallashuvi mumkin:

Hoy, kim bor?- dedi Nazakat xola yonboshida turgan tugunni echib (makon) (O‘. Hoshimov). "

Erta bahorda tuproq hidi boshqacha bo‘ladi (zamon).

(O‘. Hoshimov).

Ko‘zlarida tabassum porladi (ob’ekt). (O‘. Hoshimov).

Bobomning eshak aravasida qaytdik (vosita).

(O‘. Hoshimov).

O‘K gap tarkibida to‘ldiruvchi (a), hol (b), kesim (v) pozitsiyasida kelishi mumkin:

- a) *Kerosin hidi anqib turgan paqirda suv olib keldi.*
(O‘. Hoshimov);
- b) *Mening idorada biror soatlik ishim bor* (A.Qah-hor);
- v) *Rangi ro‘yi bir holatda* (O‘. Hoshimov).

7.KELISHIKLARNING OPPOZITIV MUNOSABATLARI TIZIMI

Har qanday til birligi singari kelishiklar mazmuni ham sintaktik va semantik jihatlar butunligidan iborat bo‘lib, shu jihatlarining amali ularga ma’lum vazifalarni bajarish imkonini beradi. Kelishiklar:

- I. Til birliklarini bog‘laydi.
- II. Tobe pozitsiyada turadi.
- III. hokim pozitsiyada turadi:
 - a) sintaktik jihatiga ko‘ra;
 - b) semantik jihatiga ko‘ra.
- IV. Gap bo‘laklarini farqlaydi.
- V. So‘z guruhlarini farqlaydi.
 - a) boshqarilayotgan so‘zni;
 - b) boshqaruvchi so‘zni.
- VI. Boshqaruvchi va boshqariluvchi so‘z joylashuviga ishora qiladi (kontakt-distantlik);
- VII. Aniqlik va noaniqlik ko‘rsatadi;
- VII. Muayyan ma’no ifodalaydi.

Bu vazifalar barchasi o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularni bu tarzda ajratib ko‘rsatish shartlidir. Kelishikning har bir qo‘llanishida ushbu vazifalar deyarli to‘lig‘icha ro‘yobga chiqadi. Kelishiklar ushbu vazifalarning ayrimlariga ko‘ra bir-biridan farqlansa, ayrimlariga ko‘ra bog‘lanadi. Ana shu vazifalarni farqlovchi belgi sifatida olib kelishiklarni oppozitsiyaga qo‘yish quyidagicha natija beradi:

I vazifa 1 belgiga ko‘ra kelishiklar ikki guruhga ajraladi. Bir tomonda BK, ikkinchi tomonda qolgan barcha kelishiklar. BK da bu belgi kuchsiz (BK til birliklarini bog‘lashi ham, bog‘lamasligi ham mumkin), qolgan kelishiklarda kuchli (ular albatta tobe pozitsiyada turib, birliklarni bog‘lash uchun xizmat qiladi). YUqorida aytib o‘tilganidek, bu erda aynan sintaktik jihat nazarda tutilmokda. BK dan boshqa kelishiklarning hokim so‘z tarkibida kelishi ularning semantik jihatii bilan bog‘liq bo‘ladi.

II belgi va III belgiga ko‘ra ham kelishiklarning zidlanishi mohiyatan I belgiga ko‘ra yuzaga kelgan zidlanishdan farq qilmaydi.

II belgiga ko‘ra BK yana kuchsiz a‘zo bo‘lsa, qolgan kelishiklar kuchli a‘zo.

III a vazifaga ko‘ra «sintaktik jihatiga ko‘ra hokim pozitsiyada turmaslik» belgisi yuzaga keladi. Bu belgiga ko‘ra ziddiyatda ham BK kuchsiz, qolgan

kelishiklar kuchli a'zo sifatida qatnashadi. Ko'rinadiki, bu ziddiyatlarning barchasi noto'liq privativ ziddiyatlar ekan.

SHu vazifasi asosida «semantik jihatiga ko'ra hokim pozitsiyada turolmaslik» belgisi yuzaga keladi. Ushbu belgi asosida yuzaga kelgan oppozitsiya ham privativ bo'lib, QK va TK bu oppozitsiyaning kuchli a'zolari, qolgan kelishiklar kuchsiz a'zolaridir.

IV vazifaga ko'ra kelishiklar ma'lum gap bo'laklarini farqlay olish xususiyati bilan ko'pgina oppozitiv qatorlar hosil qiladi:

«Ega bo'la olmaslik» belgisiga ko'ra BK va CHK kuchsiz a'zo, qolgan kelishiklar kuchli a'zo bo'lgan privativ oppozitsiya yuzaga keladi.

«Vositasiz to'ldiruvchi bo'la olish» belgisiga ko'ra esa TK kuchli, BK va CHK kuchsiz a'zo bo'lgan privativ oppozitsiya yuzaga keladi: O'K, JK, QK bu oppozitsiyada qatnashmaydi. «Vositali to'ldiruvchi bo'la olishlik» belgisiga ko'ra yuzaga kelgan privativ oppozitsiyalar esa BK, TK, QK kuchli, O'K, JK, CHK kuchsiz a'zo hisoblanadi.

«Qaratqich aniqlovchi bo'la olish» belgisiga ko'ra QK kuchli, CHK kuchsiz a'zo bo'lgan privativ oppozitsiyada boshqa kelishiklar qatnashmaydi.

«Hol bo'la olmaslik» belgisiga ko'ra QK va TK kuchli, BK, O'K, JK, CHK kuchsiz a'zo bo'lgan privativ oppozitsiya yuzaga keladi.

«Kesim bo'la olmaslik» belgisiga ko'ra esa QK va TK kuchli, BK, QK, JK, CHK kuchsiz a'zosi hisoblangan privativ oppozitsiya yuzaga keladi.

So'zlarning muayyan leksik-semantik, leksik-grammatik guruhiga ishora qilish kelishiklarda izchil emas. SHunga qaramay bu jihatdan ham muayyan qonuniyatlar borki, ulardan ko'z yumib bo'lmaydi.

Muayyan turkum bilan bog'lana olish borasida TK boshqa kelishiklarga nisbatan ancha xoslangan. Tushum kelishigidagi so'z fe'l bilan, fe'lning ham o'timli tipi bilan bog'lana oladi. SHuning uchun ham gap tarkibida TK li so'z doimo vositasiz to'ldiruvchi vazifasida keladi. Xuddi shu vazifada kelish BK uchun ham xos. Demak, BK va TK vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelib, boshqaruvchi so'zni turkumiy differentsiatsiyalaydi:uning o'timli fe'l ekanini ko'rsatadi. Kontakt pozitsiyada ham BK bilan o'rin almasha olmaganda, TK va QK olmoshga ishora qiladi. O'K va CHK, shuningdek, JK da ham fe'l bilan bog'lanish imkoni juda kuchli bo'lsada, ular boshqa turkumdagi so'zlar bilan ham bemalol bog'lana olishi tufayli, ularda bu xususiyati izchil deb baholab bo'lmaydi.

Umuman, Va va Vb vazifasiga ko'ra kelishiklar muntazam va qat'iy oppozitsiyada turmaydi.

VI vazifa -kontakt-distantlikka ishora qilish va VII vazifa aniqlik-noaniqlik ko'rsatish o'zaro zich bog'liq. Qolgan barcha kelishiklarning BK bilan o'rin almashuvida bu ikki omil katta rol o'ynaydi. Boshqaruvchi va boshqariluvchi so'z orasida masofa uzoqlasha borgan sari BK ning boshqa kelishiklar o'rnida qo'llanish imkoni kamayib boradi. Buning asosiy sababi esa BK ga noaniqlik ifodalash ko'proq xosligidan kelib chiqadi. Masofa kontakt bo'lganida, shu holatning o'zi muayyan darajada aniqlik ifodalash uchun xizmat qiladi. SHunda ham aniqlik -ta'kid zarur bo'lgan o'rinlarda, kontakt-distantlikdan qat'iy nazar,

BK qo'llanishi (boshqa kelishiklar uchun xos o'rinlarda) chekli bo'ladi. Ko'rinadiki, VI, VII vazifalar asosida «aniqlik ifodalash» belgisiga ko'ra kelishiklar privativ oppozitsiyada turuvchi ikki guruhga ajraladi: BK ushbu oppozitsiyaning kuchsiz a'zosi bo'lsa, qolgan kelishiklar opozitsiyaning kuchli a'zolaridir, chunki BK anqlik ham (masalan, ega pozitsiyasida), noaniqlik ham ifodalay oladi. Qiyoslang: *Kitob turibdimi?—Kitob bering!*

VIII vazifaga ko'ra kelishiklar murakkab oppozitsiyalar qatori hosil qiladi: aniq ifodalangan ob'ekt yoki sub'ekt (egador ham nazarda tutilmoqda) ni ko'rsatish «farqlash» belgisiga ko'ra BK, TK, QK privativ oppozitsiyaga kirishadi. BK ushbu oppozitsiyaning kuchsiz, TK va QK kuchli a'zolaridir (1);

«lokallik ko'rsatish» belgisiga ko'ra yuzaga kelgan privativ oppozitsiyaning uch a'zosi mavjud bo'lib, ulardan QK kuchli, JK va CHK kuchsiz a'zolaridir (2); ko'rinadiki, «semantik ma'no ifodalash» belgisiga ko'ra kelishiklar ikki guruhga ajraladi. Bir tomonda «farqlovchi» BK, TK, CHK, ikkinchi tomonda; «lokallik ifodalovchi» O'K, CHK, JQ Bu ikki taraf ko'rsatilgan belgiga ko'ra ekvipolent oppozitsiyada turadi (3);

(2) oppozitsiya a'zolari «harakatning o'rinlashuvi» belgisiga ko'ra ekvipolent oppozitsiya hosil qiladi: JK harakatning yunalishi, CHK harakatning boshlanish nuqtasi, O'K harakatning bajarilish nuqtasini ko'rsatadi.

YUqoridagi VIII vazifaga ko'ra oppozitsiyalar sistemasini chizmada quyidagicha tasavvur qilish mumkin: Ko'rsatilgan barcha oppozitsiyalar uchun asos bo'lgan belgilarga munosabat har bir kelishikning umumiy grammatik ma'nosi (UGM) ni ko'rsatadi

Umuman kelishik kategoriyasi mohiyati borasida ham ushbu oppozitsion belgilar tizimiga suyanamiz. Sintaktik belgilar (1-10 ustun) kelishik oppozitsiyalarida har jihatdan ustunlik qiladi: ular ham miqdoran ko'p, ham kelishiklar bu belgilar asosidagi oppozitsiyalarda to'liq qatnashadi (6-8 ustunlarni hisobga olmaganda). Semantik belgilar miqdoran kam va kelishiklar bu belgilar asosida muntazam oppozitiv munosabatlarda turmaydi, ya'ni ushbu belgilar ayrim kelishiklar uchun umuman xos bo'lmasligi mumkin (11-ustundan tashqari). SHu asosda kelishik kategoriyasini sintaktik kategoriya deb baholash mumkin. Albatta, bu mutlaq unda semantik jihatni rad etmaydi. Sintaktik va semantik jihatlar kelishik kategoriyasi UGM sining ziddiyatli ikki tomonini tashkil qiladi. Kelishik kategoriyasi sintaktik jihatdan hokim-tobelikni ifodalash, semantik jihatdan farqlash va lokallashuv ko'rsatish uchun xoslangan.

